O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

**A.I.Tuychiyev**
Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .......................... 119
**R.K.Boyqo‘zieva**
Milliy madaniy merosimizni o‘rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .......................................................................................................... 122
**U.L.Kuchkarov**
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.......................................... 126
**N.A.Niyazova**
Smart-jamiyatga o‘tish kontekstida ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy ilg‘or pedagogik xamkorligi ................................................................................................................ 130
**S.O‘.Boybo‘riyeva**
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari................................. 137
**N.S.Qanoatova**
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta’lim olishining nazariy-pedagogik asoslari ............................................................................................. 141
**O.M.Karimov**
O‘quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .......... 146
**S.A.Qo‘chqorov**
Chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .................................... 151
**I.A.Imomov**
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta’lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili ................................................................................ 156
**Sh.Mo‘minov,T.Mo‘minov**
Notiqlik va vatanparvarlik uyg‘unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .................................... 161
**B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva**
Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari ........................... 164
**D.O‘.Yusupova**
Chet tili o‘qitishning modelllari xaqida........................................................................................ 168
**A.I.Soyibnazarov**
O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari.................................................................................................................. 172
**A.M.Toshpo‘latov**
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi ........................... 177
**Sh.X.Azamov**
Zamonaviy ta’lim jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish.................................................... 183
**A.Tadjibaeva**
Ta’lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta’lim olishni ta’minlash omili sifatida .................................. 187
**F.V.Xalilov**
Talabalar mustaqil ta’limininig bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish........................................................................................................ 194
**M.M.Kataeva**
Ta’lim jarayonida mobil ta’limning tahlili va tavsiyalar ................................................................ 198
**E.K.Muxtarov**
Ikki o‘lchamli potensial o‘radagi zarrachaning kvant holatini modellashtirish .............................. 203
**M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova**
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi ............................................................... 208
**U.Sh.Abduraximova**
Bo‘lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari........................................................................................... 212
**B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova**
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o‘qishga o‘rgatish texnologiyalari............ 220
**A.U.G‘ofurov**
Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari .................................................................................................................. 224

PEDAGOGIKA

UDK: 37(075)+796,2 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a23

# UZLUKSIZ TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA INTIZOMLILIK MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH

# ФОРМИРОВАНИЕ ДИСЦИПЛИНАРНОГО ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

# FORMATION OF STUDENTS' DISCIPLINARY ATTITUDE IN THE PROCESS OF LIFELONG EDUCATION

**Tuychiyev Ashurali Ibragimovich**[1]

[1]**Tuychiyev Ashurali Ibragimovich** – Farg‘ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarini intizomli munosabatga o‘rgatish va ta’lim-tarbiya berish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida o‘quvchilarni dars va darsdan tashqari vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish masalalari yoritilgan. Tarbiyaviy faoliyatini oqilona tashkil etishi sharoitlari bolalarni intizomlashtirishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi. O‘smir xarakatlarining ichki mazmunini tushunishi uchun uning faoliyati bilan bog‘liq holda psixologik xususiyatlarini o‘zganish zarurligini asoslab bergan.*

***Аннотация***

*В данной статье освещены вопросы правильной организации учебного и внеучебного времени учащихся как социально-педагогическая необходимость воспитания школьников в дисциплинированности и воспитания. Условиями рациональной организации учебной деятельности является непрерывный процесс дисциплинирования детей. Для того чтобы понять внутреннее содержание действий подростка, обоснована необходимость изменения его психологических особенностей по отношению к его деятельности.*

***Abstract***

*This article highlights the issues of proper organization of educational and extracurricular time of students as a socio-pedagogical necessity of educating schoolchildren in discipline and education.The conditions for the rational organization of educational activities are a continuous process of disciplining children. In order to understand the inner content of the adolescent's actions, it was justified the need to change his psychological characteristics in relation to his activities.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ta’lim-tarbiya, shaxs, ijtimoiy muhit, dars, intizom, pedagogik jarayon, intizomlilik, uzluksiz jarayon, iymon-e’tiqod, sadoqat xalollik, posklik mehnatsevarlik, xislatlarini tarbiyasi, bolaning qiziqishi, idrok eta olish tasavvur va tafakkurlash qobiliyati.*

***Ключевые слова:*** *Воспитание, личность, социальная среда, урок, дисциплина, педагогический процесс, дисциплина, непрерывный процесс, вера, лояльность, честность, добросовестность, воспитание характера, интерес ребенка, восприятие, воображение и мыслительные способности.*

***Key words:*** *Education, personality, social environment, lesson, discipline, pedagogic process, discipline, continuous process, faith, loyalty, honesty, conscientiousness, character education, child's interest, perception, imagination and thinking ability.*

## KIRISH

Tarbiya uzluksiz jarayon bo‘lib, inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirigacha davom etib boradi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea hodisalarining shaxsga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganligini belgilaydi. Bugungi kunda ta’lim sohasi oldida turgan sir yoki ijobiy ta’sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganligini belgilaydi. Bugungi kunda ta’lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolaridan biri ham aynan shu maqsadga qaratilgan bo‘lib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdan iboratdir. O‘sib kelayotgan yoshlarimiz orasida tarbiyasi og‘ir va noqobil farzandlar uchrab turadi. Ayniqsa, farzand tarbiyasiga turli darajada e’tibor bermaydigan, ota-onalarining nazoratsiz kelayotgan o‘smirlarining taqdiri, ularning tarbiyasi va ta’limida alohida e’tibor va yondashuv talab etiladi. Ana shunday toifadagi bolalar tomonidan dars jarayoniga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Tarbiyaviy faoliyatini oqilona tashkil etishi sharoitlari bolalarni intizomlashtirishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi. O‘smir harakatlarining ichki mazmunini tushunishi uchun uning faoliyati bilan bog‘liq holda psixologik xususiyatlarini o‘zganish zarur. Intizomlilik tarbiyasida o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari vaqtlardagi hamkorlik odilona tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Bu sharoitlarda jamoat tarbiyasida intizomlilik xususiyati tarbiyalanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Davlatimizning hozirgi kuni va istiqboli yoshlarni sog'lom qilib tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Sog'lom avlodni tarbiyalashda maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini to'g'ri olib borish nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Buning uchun jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Salomatlik poydevorini eng kichik yoshdan qura boshlash, bolalarni harakatlarga o'rgatish bilan birga ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish zarurligi ta'kidlangan, lekin tajribada ilmiy asoslanmagan (L.M.Semenova, A.D.Peneyeva, V.K.Balsevich, SH.X.Xankeldiyev, V.SH.Muxammadiyev, T.S.Usmonxo'jayev, D.D.SHaripova, T.Arbuzova, T.Artamonova va boshqalar).

Intizom va intizomlilik tushunchasiga yangicha yondashuvlar ishlanishi amalga oshiriladi. Bu ommaviy umumta'lim maktablari sharoitida intizolilika tarbiyalash masalasi ustida yanada ko'proq ishlanganligida namoyon bo'ladi.

Xech bir inson dunyoga mukammal bo'lib kelmaydi. Inson jamiyatda, o'zining qurshovidagi insonlar orasida, tabiat quyida, turli tuman voqea xodisalar ichida, ular bilan mloqotda xamda bevosita aralashuv jarayonida o'sib ulg'aydi, kamolga yotadi. Shuning uchun xam komil inson haqidagi ta'limot insonni xar jihatdan yetuk ma'naviy-ahloqiy, ma'rifiy, ijtimoiy siyosiy, xududiy soxalarda eng yuksak kamolotga yetgan xislatlarini nazarda tutadi.

Yoshlar orasida pedagogik nuqtai-nazardan qarovsiz qolgan, tarbiyasi og'ir, huquqbuzarlikka moyil yoshlarning ko'payib borishi, o'quv tarbiya jarayonida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bugungi tartib buzarlikka moyil bola ertaga potensial jinoyatni bo'lib yetishishni mumkin. Shuning uchun ham dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'smirlar bilan tarbiyaviy soatlar olib borishi alohida yondashuvning talab etadi.

Yoshlarda iymon-e'tiqod, sadoqat halollik poklik mehnatsevarlik, kabi hislatlarini tarbiyasi ta'li tarbiya sohasida milliy umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish, yoshlarni milliy mustaqillik ruhida tirbiyalash talab etiladi.

Yoshlarni tarbiyalashda tarbiyaviy jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim tarbiyaviy ta'sirga qarshilik qiluvchi turli kuchlar, omillar mavjud. Yagona pedagogik jarayonda tarbiyaning samaradorligini oshirishda quyida qayd etilgan xususiyatlarni hisobga olish bilan birga o'ziga xos bo'lgan tamoyillar ham borki, bu tomonlari emas. Ko'zlangan maqsadga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiya metodlari o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli. Bir so'z bilan aytganda bu metod tarbiyalanuvchidan o'quvchilarini ma'naviy ahloqiy, estetik va milliy fazilatlarini shakllantirish maqsadida ularning ongi va tafakkuriga xamda irodasiga ta'sir etish yo'llarini ishlab chiqishni zamon bilan hamnafaslikni talab etadi.

Jamiyatda insonlarning rivojlanishida o'ziga xosligini o'rganishi orqali uning kelajagini bashorat qilish mumkin bo'ladi. Bolaning o'ziga xosligi ko'p jihatdan u tarbiyalanayotgan oilaning ilmiy, kasbiy, madaniy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Bolaning qiziqishida idrok eta olish tasavvur va tafakkurlash qobiliyatiga, xarakter va ko'zga tashlangan dastlabki kurtaklarni parvarish qilish, to'g'ri yo'naltirish rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash uning o'ziga xos inson bo'lib yetishishi uchun katta imkoniyatdir. Bu imkoniyatdan bahramand qilish oila, ta'lim muassalarining asosiy vazifalariga kiradi. Bolaning hayotini, ichki axloqiy-ma'naviy umummadaniy o'sib rivojlanishida ko'maklashishi orqali kamolotga yetkazishini ta'minlash zarur. Bolaning ma'lum bir turkum fanlarga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash, qiziqishi sustroq bo'lgan fanlarga qiziqtirish imkoniyatlarini shakllantirish yo'llarini izlash lozim. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining muntazam o'rganib, tahlil qilib borish, o'quvchida pedagogik yordam ko'rsatish va o'quv bilim jarayonida uni pedagogik qo'llab-quvvatlashning qulay shakli va didaktik imkoniyatlarini izlab topshi lozim. O'quv-bilim jarayonida o'quvchi faoliyatini nazorat qilish va baxolash uchun eng samarali imkoniyatlarini izlb topshi kerak bo'ladi. Kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarni komil insonlar bo'lib yetishida axloqiy tarbiya yetakchi omil hisoblanadi. Maktablarda o'qitiladigan o'quv predmetlari bolalarning xar tomonlama aqliy, jismoniy tibiby rivojlanishlarida muhim o'rin tutadi. Fanlarga ilk qiziqish xam maktabdan boshlanadi. O'quvchilarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. O'quvchi shaxsining umumiy rivljlanishiga yo'naltirilgan o'quv-bilim jarayonini tashkil etish o'ta muhim masalalardan biridir. Ta'lim mazmunining shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlovchi yo'nalishlarini kengaytirish, xar bir o'quvchining imkoniyatlarii xisobga olgan xolda rivojlantiruvchi ta'limga axamiyat berish zarur. Shaxsning o'zligini namoyon etish xusuiyatlar bilan uyg'unlashtirilishini muammosi o'tilgan. A.S.Makarenko intizomini barcha tarbiyaviy ishlarining aloqiy va siyosiy xodisasi sifatida qaratilgan. Mazkur tushunchaning moxiyatida intizom

bilan muvofiqligi xar bir alohida shaxsning yanada xisoyalangan, erkinroq kamolotga olib chiqishi nazarda tutilgan.

O‘quvchilarda darsga ijobiy munosabatga shakllantirish jarayonida barcha ishtirokchilarning fikrini o‘rganishi va taqliblarini inobatga olish, mazkur jarayonlarida barcha sub’yektiv ishtirokini ta’minlashiga xizmat qiladi. Bunday barcha uchun qulay ta’limy muhitini o‘quvchilarda darsga ijobiy munosabatini shakllantirish jarayonlarida vujudga keltirish pedagogik xodimlar kompetentligi darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishida tashkiliy ijrochilik funksiyasidan foydalanish ham samaradorlikni ta’minlashga hizmat qiladi. Chunki o‘quvchilarda darsga ijobiy munosabatini shakllantirish jarayonida tashkilotlarini to‘g‘ri tanlash va ular tomonidan bajariladigan vazifalarni oqilona taqsimlash ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etib, ularning qiziqishi, moyilligi, dunyo qarashi, o‘ngimizdagi voqea hamda hodisalarning oqibatlariga bo‘lgan munosabatlarning tabiiyligi va obyektivligi sub’yektlarning o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng asosiy omillar xisoblanadi.

XXI asr ta’limi oldiga qo‘ygan talablariga ko‘ra mutaxassislar tanlangan kasbi bo‘yicha bilim, malaka, va ko‘nikmalarni egalashidan tashqariekologik, iqtisodiy va yuridik bilimlar bilan qurollanishiga xamda uzluksiz ravishda mustaqil bilim olish vositasi sifatida zamonaviy axborot tizimidan mustaqil va rasional foydalana oladigan darajada ko‘tarilmog‘i lozim. “Ta’lim to‘g‘risda”gi qonun XXI asr axborot asrida o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlarini tashkil qilishga alohida e’tibor, ta’lim predmet asolarini yaxshi o‘zlashtirish va hayotga tatbiq eta bilish uchun o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga va fan asoslariga qiziqishini yo‘qotishdan boshlanadi. Intizomga salbiy munosabatdan o‘quvchilarni qayta tarbiyalash muammosining dolzarbligidan kelib chiqib har bir o‘qituvchi, eng avvalo, o‘quvchilarning mavjud bilim va malakalariga tayangan holda, ularda o‘z predmeti asosida qiziqishni tarbiyalamoq lozim.

O‘quvchilarning bilim faoliyati muayyan o‘quv muammolarini yechishiga yo‘naltirilishi kerak. Buning uchun faoliyat usullari va metodlari yig‘indisidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning bilim faoliyatlarini tashkil etish tushunchasi ostida o‘qituvchi va o‘quvchilarning izchil harakatlarini ifodolovchi tizim tushuniladi. Mazkur tizim didaktik shart-sharoitlarni vujudga keltirishni ta’minlash, o‘quv topshiriqlarini bajarish va ushbu jarayonini maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkonini beruvchi tizim bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning bilim faoliyatiga yo‘naltirish jarayonining bir qator yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

## XULOSA

Hulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, o‘quvchilarni boshlang‘ich sinflardanoq shakllantirilsa o‘smirlik davri va undan keyin ham salbiy tomonga kamroq og‘ish hollarini kuzatish mumkin.

Avvalo, shuni aytish lozimki, yosh yigit-qizning o‘smirlik davrining sharoitimizda oilada, mahallada, maktabda turli hil ta’lim-tarbiya, sport, ko‘ngilochar joylardagi jamoalarda kechadi. Agar mana shu zanjirning birontasi zaif bo‘lsa, o‘smir bu yerda o‘ziga nisbatan e’tibor, hurmat, nazoratini sezmasa, boshqa narsalarni o‘ylay boshlaydi. O‘zining dunyoqarashi, intilishi borlikni o‘zida idrok etishi nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kattalarga tahlid qilish ichishni, chekishni o‘rganib o‘zgaralrdan zo‘rroq bo‘lishini xoxlab qoladi. Niyatini amalga oshirish uchun chora izlaydi, o‘zgalar ta’siriga beriladi. Natijada “yomonlar” doirasiga tushib qoladi. Agar tezda o‘smirni bu yo‘ldan qaytarish chora-tadbirlar ko‘rilmas ekan u qing‘ir yo‘lga kirib qolishi hech gap emas.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.T.Axmedova “Pyedagogik konfliktologiya”. -T.; Adabiyot uchqunlari, 2017y.300b.
2. A.K.Munavvarov “Pyedagogika”.- T.; O‘qituvchi,1996 y.
3. R.Mavlanova “Ijtimoiy pedagogika” o‘quv –qo‘llanma. T.; Istiqlol, 2009 y.